



GEOGRAFIYA DARSLARIDA IJODIY O'YINLARDAN FOYDALANISH.

F.S.Meliboyeva

QDPI geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrası

katta o'qituvchisi

Z.Z.Ashirov

G.F.Jaxongirova

talaba

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'limning globallashuvi jarayonida ijodiy o'yinlardan foydalanishning ijobiy tomonlari hamda geografiya darslarida o'quvchilarning geografik bilimlarga qiziqishida qiziqarli o'yinlardan samarali foydalanish yo'llari izohlangan.

Kalit so'zlar: Geografik bilim, ijodiy o'yinlar, ko'rgazmalilik, bilish faoliyati

Jamiyatning har tomonlama ravnaq topishi, taraqqiy etishi ta'limning rivojlanishiga va mazmunan takomillashib borishiga bog'liq. Bugungi kunda ta'lim sifat samaradorligini oshirish eng dolzarb masalalardan biri bo'lib hisoblanmoqda. Ta'limning globallashuvi, innovatsion texnologiyalarning joriy etilayotgani, ayni paytda keng ko'lamlı axborotlar oqimi ta'lim mazmunini muntazam yangilab, takomillashtirib borishni taqozo etadi.

O'quvchilarni geografik bilimlarga qiziqishlari ko'p jihatdan ularning o'qishdagi muvofaqiyatlariga bogliqdir. Qiziqarli o'yinlardan mutazam foydalanib borishda geografiya fani katta imkoniyatga ega. Bu to'g'rida geograf-metodist olim N.N.Baranskiy (1959) shunday baxo bergan edi: « . . . fanlardan xech biri shunday darajada ko'rgazmalilik va qiziqarlikka muxtoj emas va shu fanlardan xech biri geografiyachalik ta'limning ko'rgazmali va qiziqarli usullarini qullashga boy bo'lgan qimmatli maydonni taqdim qilmaydi. Boshqa fanlardan xech biri ko'rgazmali va qiziqarlilikda geografiyaga o'xshab yuqori samara bera olmaydi...». Bu baxo xali ham o'z ahamiyatini xozirgacha yuqotgani yo'q. Geografiya o'qituvchisi o'quvchilardan fanga jonli va barqaror qiziqish uygotishda geografiya fanining yuqoridagi qulay imkoniyatlaridan foydalanishlari darkor.

Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarni aks ettirib, o'quvchilarni ma'lum bir vazifa, topshiriqlarni bajartirish orqali bilim, ko'nikma va malaka shakllantiriladi. Shu bilan bir qatorda kasbiy sifatlarni tarkib toptirish, ularni ongli ravishda kasbga yo'llash, ilmiy dunyoqarashni kengaytirishga mo'ljallangan didaktik o'yinlar dars sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga egadir.

Ta'lim jarayonida vujudga kelgan muammoli vaziyatlarni o'quvchilar guruhining o'zaro hamkorlikda avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarni ijodiy qo'llash va izlanish orqali hal etishga zamin tayyorlaydigan didaktik o'yinlarni ijodiy o'yinlar deb atash lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayonida darsda o'rganiladigan mavzuning mazmuni e'tiborga olingan holda darsda o'quvchilarning kichik guruhlarda mustaqil ishlashi, o'quv baxslar tashkil etish, aqliy hujum, didaktik o'yinlar, taqdimot, o'z-o'zini baholash, tashrif kabilardan foydalanish, masala va mashqlar yechishni yo'lga qo'yish o'quvchining diqqat markazida



bo'lishi kerak. Geografiyani o'qitishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining barcha metodlaridan, modulli ta'lim texnologiyasining o'quvchilarni kichik guruhlarda ishlashiga mo'ljallangan modul dasturlaridan foydalish shular jumlasiga kiradi.

Geografiya darslarida o'quvchilarning bilish faoliyati o'qitishni individual va kichik guruhlarda ishlash shakllari bilan birgalikda foydalanilsa, darsda ijobiy natijalarga erishish mumkin. Hamkorlikda o'qitishning kichik guruhlarda o'qitish metodida o'qitish kichik guruhlar bilan, "arra" metodida esa, o'quvchilarni avval individual tarzda, so'ngra kichik guruhlarda o'qitish uyg'unlashtiriladi.

Geografiya darslarida o'rganilayotgan mavzuning didaktik maqsadi, vazifalari, mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarning bilish faoliyati individual kichik guruhlarda va yalpi holda tashkil etish shakllaridan o'z o'rnida va samarali foydalanish tavsiya etiladi.

O'quvchilarning bilish faoliyatini samarali tashkil etish va oqilona boshqarish uchun geografiya o'qituvchisi quyidagi amallarni bajarishi lozim:

1. O'rganilayotgan mavzuning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlaridan kelib chiqqan holda, o'quvchilarning bilish faoliyatini qaysi shaklda tashkil etish ;
2. O'quvchilarning bilish faoliyatini loyihalash;
3. O'qitishdan ko'zda tutilgan maqsadni amalga oshirish yo'llarini belgilash;
4. Dars davomida o'quvchilarning bilish faoliyatidan olingan natijani tahlil qilish va uning maqsadga muvofiqligini tekshirib ko'rish;
5. Zarur hollarda o'quvchilarning bilish faoliyati loyihasiga tegishli o'zgartirishlar kiritish.

O'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish shakllari

<u>Bilish faoliyatini tashkil etish shakllari</u>	<u>O'qituvchi faoliyati</u>	<u>O'quvchi faoliyati</u>
<u>Yalpi ommaviy o'qitish</u>	<u>Yangi mavzuni ko'rgazmalilik asosida tushuntiradi. tayyor axborot beradi. subyekt-obyekt munosabatlari vujudga keladi.</u>	<u>Yangi mavzuni tinglaydi, eslab qoladi, savollarga javob beradi. Faoliyati sust bo'ladi.</u>
<u>Individual o'qitish</u>	<u>Har bir o'quvchiga tegishli topshiriqlar tayyorlaydi, tavsiya etadi. Yangi mavzuni o'quvchilar bilan hamkorlikda qayta ishlaydi. Subyekt-subyekt munosabatlari vujudga keladi</u>	<u>O'zlariga tegishli o'quv topshiriqlarini bajaradi, o'z bilimi, kuchi va iqtidoriga bo'lgan ishonchi ortadi, bilish quvonchini his etadi.</u>
<u>Kichik guruhlarda o'qitish</u>	<u>Har bir kichik guruhga tegishli o'quv topshiriqlari tayyorlaydi va tavsiya etadi. Yangi mavzuni o'quvchilar bilan hamkorlikda qayta ishlaydi. Subyekt-subyekt munosabatlari vujudga keladi.</u>	<u>Balgilangan o'quv topshiriqlarini bajaradi, o'zaro hamkorlim vujudga keladi, o'zaro nazorat amalga oshadi, bilish quvonchini his etadi.</u>



Shunday qilib, o`quvchilar bilish faoliyatini tashkil etish va boshqarish, mazkur faoliyatni maqsadga muvofiq tashkil etish, uni loyihalash, maqsadni amalga oshirish yo`llarini belgilash, olingan natijani tahlil qilish va baholash bosqichlaridan iborat bo`ladi.

Hozirgi zamon ta`lim-tarbiya jarayonida o`z xukmronligini saqlab kelayotgan an`anaviy ta`lim, o`quvchilarni yalpi o`qitishni va o`quvchilarning bilish faoliyatini passiv tinglovchi sifatida tashkil etishni nazarda tutadi. O`qitish ishlarini tashkil etishda o`rta saviyali o`quvchi nazarda tutiladi, o`quvchilarning mustaqilligi e`tibordan chetda qoladi, o`quv faoliyati o`qituvchi tomonidan boshqariladi.

Shu sababli o`quvchilarning o`quv faoliyatining to`laqonli subyektiga aylantirish, pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish va demokartlashtirish, o`qitish samaradorligini orttirish maqsadida geografiya o`qitish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo`llash zarurati tug`ildi.

Quyida Umumta`lim maktablarining 5-sinf "Tabiiy geografiya" darslarida "Gidrosfera" mavzusini o`qitish bo`yicha pedagogik texnologiyalar bo`yicha na`munaviy dars loyihasi tayyorladik.

Dars mavzusi: Gidrosfera

Darsning maqsadi:

Ta`limiy: O`quvchilarga gidrosfera va uning turlari va hosil bo`lishi to`g`risida ma`lumotlar berish.

Tarbiyaviy: O`quvchilarni darslikdan tashqari adabiyotlarni o`qishga chorlash, o`z maqsaddiga erishish uchun harakat qilish ruhida tarbiyalash, jamoa bo`lib ishlash, berilgan vazifani bajarishda ma`suliyatni sezish ko`nikmalarini shakllantirish.

Rivojlantiruvchi: o`quvchilarni mustaqil fikrlashga o`rgatish, nutq madaniyatini o`stirish, o`z-o`zini boshqarishga yo`naltirish, hozirjavoblik, topqirlik xususiyatlarini rivojlantirish.

Dars jihozi: kompyuter, videoprojektor, gidrosfera va uning turlari tasvirlangan jadvallar.

Dars tipi: aralash.

Dars turi: noan`anaviy.

Tashkiliy qism: salomlashish, davomatni aniqlash. Rag`bat uchunturli shakllardagi matematik figuralar ("5" baho qizil rangdagi beshburchak, "4" baho yashil rangdagi to`rtburchak, "3" baho ko`k rangdagi uchburchak, noto`g`ri javob uchun sariq rangdagi doira) dan beriladi. Dars yakunida eng ko`p matematik figuralarni to`plagan guruh g`olib hisoblanadi.

O`quvchilarni 5 guruhlarini ishlash qoidalarini ishlab chiqiladi va doskaga yoziladi.

I guruh- Dunyo okeani

II guruh- Quruqlikdagi suvlar

III guruh- Muzliklar

IV guruh- Yer osti suvlari

V guruh- Atmosferadagi suvlar

Guruhlarga Gidrosfera va uning turlari bo`yicha topshiriqlar beriladi. Har bir guruh o`z guruhini nomini izohlaydi. So`ngra ushbu guruhlarini nomlari ta`sirida hosil bo`luvchi



gidrosferaning tarkibiy qismini albomga chizadilar va mustahkamlash uchun savollar berilib, uga vazifa uchun topshiriq beriladi.

Xulosa qilib aytganda ushbu mavzuni o`qitilishida geografik o`yinlarning ahamiyati yuqoridir. O`yinli darslarda o`quvchilarning barchasi hamkorlikda ishlaydi, bu esa o`quvchilarning o`z bilimlariga tayangan holda jiddiy tayyorgarlik ko`rishga va izlanishlariga olib keladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Бердиев, Файратжон Хасанбоевич, and Феруза Солижонова Мелибоева. "СУВ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ТРАНСЧЕГАРАВИЙ МУАММОЛАРИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 29-31.
2. Мелибоева, Феруза Солижонова, and Файратжон Хасанбоевич Бердиев. "СУВ ТАҚЧИЛЛИГИДА СУҒОРИШ УЧУН ОҚАВА СУВИДАН ФОЙЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИНИ БАХОЛАШ." *Интернаука* 10-4 (2017): 31-34.
3. Мелибоева, Феруза Солижонова. "ФАРҒОНА ВОДИЙСИ СУВ РЕСУРСЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ХАЛҚ ХЎЖАЛИГИДАГИ АҲАМИЯТИ." *Интернаука* 10-4 (2017): 34-36.
4. Мелибаева, Феруза Солижановна, and Баходир Асамович Камалов. "Оценка возможности использования канализационных сточных вод для орошения при нехватке оросительной воды." *Europäische Fachhochschule 1* (2016): 3-6.
5. Мелибаева, Ф. С. "Распространение инфекционных заболеваний в кишлаках юго-западной части Дангаринского района Ферганской области." *Материалы республиканской конференции "Актуальные вопросы охраны окружающей среды Узбекистана"*. Самарканд. 2013.
6. Meliboeva, F. S. "GEOGRAPHICAL FEATURES OF MANUFACTURING AND HUMAN HEALTH." *Экономика и социум* 2-1 (93) (2022): 73-76.
7. Meliboeva, F. S. "MANUFACTURING IMPACT ASSESSMENT ON HUMAN HEALTH." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 3.12 (2023): 113-115.
8. Meliboeva, F. S. "DISEASES CAUSED BY ENVIRONMENTAL POLLUTION IN THE KOKAND OASIS." *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI* 3.12 (2023): 116-119